

XITOIY TILIDA ISH YURITISH HUJJATLARI SEMANTIK
KOMPONENTLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352472>

YOQUBJONOV Muhammadali
Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

Abstrac: We know that documentation plays a crucial role in any treatment setting. Documentation helps assure continuity of care and it's important for practitioners. The main task of documentation is to create content in a right way and save them. Documentation is one of the most important part in a political aspects. It should be clear, short (but including of all maintenances), meaningful and easy to understand. The documentation between two countries is the most important part in development of both sides: in a political life, also in economical. In this report we will try to analyze the stylistics of semantic components in documentation (or paperwork). As translator we must be most careful in documentation of two countries, because the light future and great friendship of Uzbekistan and China depends on our contents and how clear and rightly we can say the meaning of documents to each other.

Hujjatchilikning muxim vazifasi – ma'muriy faoliyatini hujjatlash, barcha hujjatlarni ishlab chiqish, ularni saqlashdir. Hujjatchilik avvalo til fani bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, ish qog'ozlari nutqi-rasmiy uslub aniqligi, mantiqli, ixchamlo'nda, qiska hamda ishonarli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Hujjatlar nutqi umumiste'moldagi adabiy tildan ajralmagan holda ish ko'radi, ya'ni o'zbek adabiy tili qoidalari, qonuniyatlariga rioya qiladi.

Hujjatlarni tayyorlashda ularning mazmuniga katta e'tibor beriladi. Bunda hujjatdagi bayon qilingan fikr uslubi odatda ish qog'ozlarining nutqini tashkil qiladi.

Xozirgi o'zbek adabiy tili boy tillardan bo'lib, u boshqa tillar kabi murakkab jixatga ega, chunki so'zlarning qo'llanishining o'zida xilma –xillikni ko'ramiz. Bizning misolimizdagi rasmiy uslubda to'xtalib o'tamiz.

Rasmiy uslub ish qog'ozlari nutqi aniqligi, mantiqli, ixcham-qisqa hamda ishonarlighi bilan xarakterlanadi.

Semantik komponentning muhim bir xususiyatlaridan biri - bu uning yuqori darajada mavhumligidir. Aynan shu xususiyat semantik komponentlarning moslashuvchanligi, nisbatan turg'unligini belgilaydi. Bir komponent turli hil so'zlarning ma'nosiga kiradi, bu esa semantik komponent individual emasligini ko'rsatadi. Semantik komponent ma'lum darajada “silliq”, “yuzsiz” bo'lishi lozim. Bu unga turli so'zlar ma'nolariga qo'shimcha element sifatida singishiga yordam beradi. Semantik komponentlar turli diplomatik hujjatlarda keng qo'llaniladi va ko'pincha bir semantik element turli mavzudagi diplomatik hujjatlarda turlicha talqin etiladi. Quyida ish yuritish hujjatlarida uchraydigan ayrim semantik komponentlarini ko'rib chiqamiz:

► 就 jiu “o'sha zahotiyiq, tezda”.

Ushbu komponent fe'l so'z turkumidagi so'zdan oldin qo'yilib, ish – harakatning qisqa vaqt ichida sodir bo'lganligini, bir voqea ikkinchi voqeadan so'ng tez sodir bo'lganligini ifodalab, tasdiq ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yordamchi so'z ma'nosida 就 jiu vaqt holidan keyin

ishlatilib, voqeaning ma'lum bir vaqt bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi va voqea ma'lum belgilangan vaqtda sodir bo'lganligi yoki sodir bo'lishi ma'nosini kuchaytiradi.

就 jiu: «...dan kelib chiqib», «...ga ko'ra»;

就 jiu: «aynan; u holda; shu zahotiyiq, tez» kabi ma'nolarga ega.

Masalan, 兹就贵方今年二月二日来信答复。。。如下 zi jiu guifang jinnian eryue erri lai xin dafu ruxia. “Joriy yilning 2 fevralida Siz tomoningizdan yuborilgan xatga binoan quyidagi javobni jo'natmoqdamiz”. Bu semantik komponent 就此 jiuci “shu bois” kabi so'zlarni ham tarkibiga kiradi.

► 此 ci semantik komponenti ko'rsatgich olmoshini ifodalab “hozir”, “shu vaqtda”, “bu yerda” kabi ma'nolarni beradi. Masalan, 此后 cihou “shundan so'ng”, 此外 ciwai “bundan tashqari, shu bilan birga”, 此刻 cike “hozirgi paytda” kabi so'zlar tarkibida qo'llanilishi kuzatiladi.

► 致 zhi “yubormoq, ifodalamoq” ma'nolarida qo'llaniladi. Gap tarkibida quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

• «bermoq», bu ma'noda 给与 geiyu so'zining ma'nosiga yaqin;

• etiket, hurmatni ifodalash maqsadida;

• tenglik hissini kuchaytirish maqsadida;

• diqqatni bir joyga qaratmoq maqsadida;

► 以至 yizhi tarkibida esa natija ma'nosidagi bog'lovchi vazifasida qo'llaniladi va “natijasi o'laroq”, “...ga olib keldi” ma'nolarni ifodalaydi.

► 对 dui semantik komponent vazifasida yo'nalish bog'lovchisi ma'nosida ishlatiladi, “...ga”, “... qarab” kabi ma'nolarni bildiradi va o'zaro mos kelish ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi. Ko'pincha gap tarkibida fe'l vazifasini bajaradi.

► 将 jiang semantik komponenti:

a) ravish vazifasida diplomatik hujjatlarda yaqin orada sodir bo'lajak voqea – hodisani ifodalash ma'nosida qo'llaniladi;

b) biror - bir paytning yaqinlashuvini ifodalaydi;

v) belgilangan kelajak paytida sodir bo'lajak voqeani ifodalaydi;

g) kelajak zamonining belgisi sifatida ishlatiladi;

d) yordamchi so'z sifatida vositasiz to'ldiruvchining inversiyasi uchun, ya'ni fe'ldan oldingi o'ringa olib chiqish uchun ishlatiladi. Masalan, 将 jiang + ot + fe'l = «kelajakda biron narsa qilmoq». 我方将于近期内函告我方的决定。Wofang jianyu jinqinei hangao wofangde jueding. Qarorimiz haqida Sizga yaqin orada xabar beramiz.

► 签 qian “imzolamoq, tamg'a” ma'nosidagi semantik komponent bo'lib:

1. Imzo qo'yiladigan rasmiy hujjatlarda mas'uliyatni ifodalash maqsadida.

2. Hujjatga rasmiyatchilik ma'nosini berish maqsadida.¹

3. Oddiy xatlarga muhim fikrni kiritishda qo'llaniladi.

请签署此项协议，并将正本寄回一份。Qing qianshu ci xiang xieyi, bing jiang zhengben jihui yifen. Kelishuvning asl nusxasiga qo'l qo'yishingizni va bizga bir nusxasini yuborishingizni so'raymiz.

► 于 yu adabiy xitoy tilida universal old qo'shimcha vazifasida

keng ishlatilib, “...ga”, “...dan”, “...da”, “...bilan”, “...uchun” kabi ma'nolarni bildiradi. Vaqt, yo'nalish, taqqoslash ma'nolarida ishlatilishi ko'p uchraydi. M: 至于贵方的照信。。。zhiyu

¹ Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах.- М.: Высшая школа, 1987.- 220 б.

guifangde zhaoxin... “Siz tomondan yuborilgan notaga kelsak...” kabi jumlada 于yu semantik komponenti 至于zhiyu so’zi tarkibida kelib, yo’nalish ma’nosini bildiradi.

► 以yi semantik komponenti maqsad ma’nosida ishlatilib, ikki fe’l

o’rtasida keladi. 以。。。为yi...wei “biror kimni ...deb bilmoq”, 以后 yihou “...dan so’ng, keyin”, 以前 yiqian “dan oldin, avval” kabi so’zlar.

Yuqorida tahlil etilgan hujjatlarda ko’proq semantik komponentlarning qo’lanilishi kuzatiladi. Bu sohada biz Fan Xinmingning “Waishi shiyong wenshu daquan” da keltirilgan ish yuritish hujjatlari namunalari asosida quyidagi tahlilni ham amalga oshirdik:

So’roqnomaga javob.

就	对	此	致	至	以
1	1	4	4	1	2
2.53%	2.53%	10.12%	10.12%	2.53%	5.06%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

1. 此致 ci zhi-bu semantik komponentlar tarjimada mulozamat so’zlari bo’lmish “Hurmat bilan” iborasini ifodalab keladi. Jadvalga nazar tashlasak bu komponentlar eng ko’p foizga(10.12%) ega bo’lib, bu tarjima vaqtida mulozamat so’zlari ko’p ishlatilganidan darak beradi;

2. 以 yi-semantik komponenti tarjimada “...yordami bilan” ma’nosini bermoqda;

3. 就jiu-: komponentitarjimada «...dan kelib chiqib», «...ga ko’ra» ma’nosini ifodalab kelgan;

4. 对 dui- semantik komponent bog’lovchisi ma’nosida ishlatilib “...ga”, “...qarab” ma’nolarinida kelgan;

5. 至 zhi-semantik komponenti “...gacha yetib bermoq, yetishmoq, erishmoq” ma’nosini bergan.

So’roqnomaga javob.

对	就	将	于	此	致
1	2	1	1	2	2
1.26%	2.52%	1.26%	1.26%	2.52%	2.52%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

1. 此致 ci zhi-bu semantik komponentlar tarjimada mulozamat so’zlari bo’lmish “Hurmat bilan” iborasini ifodalab keladi. Jadvalga nazar tashlasak bu komponentlar eng ko’p foizga(2.52%) ega bo’lib, bu tarjima vaqtida mulozamat so’zlari ko’p ishlatilganidan darak beradi;²

2. 就jiu- komponenti tarjimada «... shu zahotiyog», «...ga ko’ra» ma’nosini ifodalab kelgan;

3. 对 dui- semantik komponent bog’lovchisi ma’nosida ishlatilib “...ga”, “...qarab” ma’nolarinida kelgan;

4. 将jiang- semantik komponentlar tarjimada «...kelajakda» ma’nosini ifodalab kelgan;

5. 于yu-semantik komponenti «...dan» ma’nosini anglatmoqda.

Itimos va unga javoblar.

就	此	致	于	以	将	到
1	2	2	5	1	1	1
2.13	4.26	4.26	10.65	2.13	2.13	2.13
%	%	%	%	%	%	%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

² Носирова С.А. Хитой тили сўз кўшиш усулида атрибутив моделининг ўрни ва аҳамияти (дипломатик атамалар мисолида)// ТошДШИ Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари мавзусидаги илмий – амалий конференция материаллари тўплами.- Т.,2005.

1. 于 yu-semantikkomponenti «...dan»ma’nosini anglatmoqda , iltimos va unga unga javob tarjimasida ko’p ishlatilganligi ya’ni tarjimada (10.65%)ega ekanligi bilan ajralib turibdi;
2. 此致 ci zhi-bu semantik komponentlar tarjimada mulozamat so’zlari bo’lmish “Hurmat bilan” iborasini ifodalab keladi;
3. 就 jiu- semantik komponenti tarjimada «... shu zahotiyog»,«...ga ko’ra»ma’nosini ifodalab kelgan;
4. 以 yi-semantik komponenti tarjimada «...yordami bilan» ma’nosini bermoqda;
5. 将 jiang- semantik komponentlar tarjimada « ...kelajakda»ma’nosini ifodalab kelgan;
6. 到dao-semantik komponenti«...yetib bormoq»ma’nosini tarjimada ifodalab kelmoqda.

Taklifnoma.

于	将	此	致	对
3	1	1	1	1
6.78%	2.26%	2.26%	2.26%	2.26%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

1. 于 yu-semantik komponenti «...dan»ma’nosini anglatmoqda , iltimos va unga unga javob tarjimasida ko’p ishlatilganligi ya’ni tarjimada (6.78%)ega ekanligi bilan ajralib turibdi;
2. 将 jiang- semantik komponentlar tarjimada « ...kelajakda» ma’nosini ifodalab kelgan;
3. 此ci -semantik komponenti ko’rsatgich olmoshini ifodalab “hozir”, “shu vaqtda”, “bu yerda” kabi ma’nolarni beradi;
4. 致 zhi “yubormoq, ifodalamoq” ma’nolarida qo’llaniladi;
5. 对 dui- semantik komponent bog’lovchisi ma’nosida ishlatilib “...ga”, “...qarab”ma’nolarinida kelgan.

Xat-tasdiq.

致	将	于	签	以	到	此
4	4	3	3	1	2	4
13.32%	13.32%	9.99%	9.99%	3.33%	6.66%	13.32%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

1. 此致 ci zhi-bu semantik komponentlar bu tarjimada ham mulozamat so’zlari bo’lmish “Hurmat bilan” iborasini ifodalab keladi.Jadvalga nazar tashlasak bu komponentlar eng ko’p foizga(13.32%) ega bo’lib,bu tarjima vaqtida mulozamat so’zlari ko’p ishlatilganidan darak beradi;
2. 将jiang- semantik komponentlar tarjimada « ...kelajakda» ma’nosini ifodalab kelgan;
3. 于 yu-semantik komponenti «...dan»ma’nosini anglatmoqda;
4. 签 qian “imzolamoq, tang’a” ma’nosidagi semantik komponent bo’lib:
 1. Imzo qo’yiladigan rasmiy hujjatlarda mas’uliyatni ifodalash maqsadida.
 2. Hujjatga rasmiyatchilik ma’nosini berish maqsadida.
 3. Oddiy xatlarga muhim fikrni kiritishda qo’llaniladi;
5. 到dao-semantik komponenti«...yetib bormoq»ma’nosini tarjimada ifodalab kelmoqda;
6. 以yi-semantik komponenti tarjimada “ ...yordami bilan” ma’nosini bermoqda.

Da’vo

此	致	签	将	到	以
4	3	2	2	1	1
17.12%	12.84%	8.56%	8.56%	4.28%	4.28%

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo’lsak:

1. 此 ci -semantik komponenti ko'rsatgich olmoshini ifodalab “hozir”, “shu vaqtda”, “bu yerda” kabi ma'nolarni beradi, tarjimada (17.12%) eng ko'p ishlatilgan komponent xisoblanadi;
2. 到 dao-semantik komponenti «...yetib bormoq» ma'nosini tarjimada ifodalab kelmoqda;
3. qian- “imzolamoq, tamg'a” ma'nosidagi semantik komponent sifatida ishlatilgan;
4. 将 jiang- semantik komponentlar tarjimada «...kelajakda» ma'nosini ifodalab kelgan;³
5. 到 dao-semantik komponenti «...yetib bormoq» ma'nosini tarjimada ifodalab kelmoqda;
6. 以 yi-semantik komponenti tarjimada “...yordami bilan” ma'nosini bermoqda.

Ish yuritish hujjatlarini xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish vaqtida so'zma-so'z tarjimasidan tashqari tarjima qilinishi kerak bo'lgan ierogliflarni ekvivalentlariga ham e'tibor berilishi kerak. Aytish lozimki ilgarigi tarjima usulidan farqli o'laroq ayrim komponentlar ma'nosi jixatidan farq qiladi va butunlay boshqa tom ma'noni anglatadi. Demak, komponentlarni tarjima qilish vaqtida ularni genezisiga katta e'tibor berishimiz kerak. Ish yuritish hujjatlarini xitoy tilidan tarjima qilishda yuqorida aytib o'tilgan komponentlardan tashkil topgan diplomatik terminlar hozirgi kunda ham faol qo'llanayotgani bilan xarakterlidir. Ularni to'g'ri qo'llanilishi nafaqat ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirishda, balki samimiyliги bilan o'zaro xamkorlarning do'stona aloqalarini mustaxkamlashga ham xissa qo'shadi. Buning uchun xitoy tili, adabiyoti, tarixi va ma'daniyatini chuqur bilish talab etiladi.

Xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima talab etiladigan ish yuritish hujjatlarining semantik komponentlari o'zining muxim xususiyatlari borligi bilan ajralib turadi. Bir komponent turli xil so'zlarning ma'nosiga kirib, bu ularni individual emasligining ko'rsatadi. Semantik komponentlar ma'lum darajadagi “silliq”, “moslashuvchan” bo'lishi lozim va ular qo'shimcha element sifatida ma'nosini singishiga yordam beradi. Semantik komponentlarning bunday moslashuvchanlik xususiyati diplomatik hujjatlarni keng qo'llanilishiga xizmat qiladi va ko'pincha bir semantik element turli mavzudagi diplomatik hujjatlarni turlicha talqin etiladi.

Har bir narsaning o'z tarixi bo'lganidek, hujjatchilik ham o'z tarixiga ega. Hujjatlar qadim zamonlardan beri olib borilganligi saqlanib qolgan ma'lumotlardan ayon. Yozuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hujjatchilik rivojlana bordi. U kishilarning o'rtasidagi muomala, fikr almashinuv, bir-birini tushunish vositasini bajargan. Hujjatchilik asrlar mahsuloti bo'lib, u jamiyat tarixi bilan bevosita bog'liq. Jamiyatning taraqqiyoti hujjatchilik tizimida ham ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Davr o'tishi bilan hujjatlarni mazmuni kengayib X-IX asrlarda yorliq, farmonnoma, bitim arznoma, qarznoma, til xat va mazmunan shunga yaqin hujjatlar turi nisbatan keng tarqalganligi haqida ma'lumotlar bor. Semantik komponentlarni o'rnida qo'llash hujjatlardagi fikrni to'g'ri ifodalash va uning ma'nosini to'g'ri tushunib yetishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах.- М.: Высшая школа, 1987.- 220 б.
2. Кулмаматов Д.С. К истории официальных письменных языков Средней Азии XVI – XVII вв.// Ж. Хорижий филология. Тил, адабиёт, таълим.- 2001.- № 1.- 124 б.
3. Носирова С.А. Хитой тили дипломатик атамаларининг таҳлили //Ж. Шарқшунослик. - Т., 2005- № 2.
4. Носирова С.А. Хитой тили сўз қўшиш усулида атрибутив моделининг ўрни ва аҳамияти (дипломатик атамалар мисолида)// ТошДШИ Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари мавзусидаги илмий – амалий конференция материаллари тўплами.- Т., 2005.
5. Рахманин.Л.В. Стилистика деловой речи и редактирование служебных документов.//2-

³FanXinming, Waishi shiyong wenshu daquan. - Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 1994.- 430 б.

изд.перевб.-М.:Высш.шк.,1982.

6. Fan Xinming. Waishi shiyong wenshu daquan. - Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 1994.- 430 b.
7. Huang Jinqi. Waijiao wenhui wenshu jiaocheng. Xia ce. – Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 2004.- 621 b.
8. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMUY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019